



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

QASHQADARYO VILOYATI O‘ZBEK SHEVALARIGA TOJIK TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘Z SINONIMIYASI

Nodir MUHAMMADIYEV*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining dialekt va shevalarida tojik tilidan o‘zlashgan leksik birliklar asosida shakllangan sinonimlar tizimi o‘rganiladi. Unda tarixiy tilshunoslik, leksikologiya va sociolingvistika nuqtayi nazaridan qarab chiqilib, o‘zbek tilining janubiy shevalarida uchraydigan tojikcha ildizli sinonimlar tahlil qilinadi. Maqolada sinonimik qatorlarda tojik tilidan kirib kelgan so‘zlar bilan bir qatorda o‘zbekcha muqobillari berilib, ularning semantik nozikliklari, uslubiy rang-barangligi va qo‘llanish konteksti yoritiladi. Xususan, “g‘am” – “anduh”, “hunar” – “kasb”, “orom” – “dam olish” kabi misollar orqali sinonimlarning kelib chiqish manbai, faol ishlatilish sohasi va ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, maqolada sinonimlarning shakllanishiga ijtimoiy omillar, ikki tildagi madaniy aloqalar va tarixiy jarayonlarning ta’siri tahlil qilinadi. Qashqadaryo viloyatidagi o‘zaro til ta’siri natijasida paydo bo‘lgan lug‘aviy boylikning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Maqola tojikcha-o‘zbekcha til aloqalari, mintaqaviy leksikologiya va dialektologiya yo‘nalishida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo shevasi, leksikologiya, tilning o‘zaro ta’siri, o‘zbek-tojik so‘zlari, leksik o‘zlashmalar, so‘zlashuv nutqi, sheva, dialekt, sinonimlar tizimi.

Synonyms of Words Adopted From the Tajik Language Into the Uzbekistan Dialects of the Kaskadarya Region

Abstract

This article studies the system of synonyms formed in the dialects and dialects of the Kashkadarya region on the basis of lexical units adopted from the Tajik language. It analyzes the Tajik-rooted synonyms found in the southern dialects of the Uzbek language from the perspective of historical linguistics, lexicology and sociolinguistics. The article provides Uzbek alternatives along with words imported from the Tajik language in synonym rows, highlighting their semantic subtleties, stylistic diversity and context of use. In particular, the source of origin, sphere of active use and significance of synonyms are shown through examples such as “g‘am” - “anduh”, “hunar” - “kasb”, “orom” - “dam olish”.

* Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti, muxammadiyevnodir93@gmail.com

The article also analyzes the influence of social factors, cultural ties between the two languages and historical processes on the formation of synonyms. The specific features of the lexical wealth that emerged as a result of mutual language influence in the Kashkadarya region are revealed. This article is of scientific and practical importance in the field of Tajik-Uzbek language contacts, regional lexicology and dialectology.

Keywords: Kashkadarya dialect, lexicology, language interaction, Uzbek-Tajik words, lexical borrowings, colloquial speech, dialect, synonym system.

Kirish

O‘zbek tili leksik jihatdan nihoyatda boy va serqatlam til bo‘lib, uning lug‘aviy boyligi turli davrlar davomida boshqa tillar bilan aloqalar natijasida yanada kengayib, boyib borgan. Xususan, tojik tili bilan uzoq yillik madaniy, tarixiy va ijtimoiy aloqalar natijasida o‘zbek tilining ko‘plab shevalarida, ayniqsa janubiy hududlarda — Qashqadaryo viloyatida tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar keng tarqalgan. Ushbu so‘zlar nafaqat lug‘at tarkibini boyitgan, balki sinonimlar tizimining shakllanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Qashqadaryo viloyatining dialekt va shevalarida tojikcha so‘zlar bilan bir qatorda ularning o‘zbekcha muqobillari ham faol qo‘llanadi, bu esa mintaqaviy sinonimik qatlamni vujudga keltirgan. Masalan, “orom” – “dam olish”, “hunar” – “kasb”, “anduh” – “g‘am” kabi juftliklar semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning uslubiy ranglari, qo‘llanilish konteksti va ijtimoiy bahosi har xil bo‘lishi mumkin. (Sultonova, 2011, 40-45).

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatidagi tojik tilidan o‘zlashgan leksik birliklar asosida vujudga kelgan sinonimlar o‘rganiladi, ularning shakllanish sabablari, qo‘llanish xususiyatlari va leksik-semantik tafovutlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikning leksikologiya, dialektologiya va sociolinguistika yo‘nalishlari uchun ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili, xususan uning janubiy shevalari bo‘lgan Qashqadaryo viloyati sheva va lahjalarida tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar keng uchraydi. Bu o‘zlashmalar ko‘pincha sinonim sifatida o‘zbekcha so‘zlar bilan yonma-yon ishlatiladi. Bu holat mintaqaviy leksik sistemaning o‘ziga xos xususiyatini tashkil etadi va sinonimlarning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

1. Tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar va ularning sinonimlari. Tojik tilidan kirib kelgan ayrim so‘zlar Qashqadaryo viloyati aholisi nutqida o‘zbekcha muqobillari bilan baravar ishlatiladi. Quyidagi misollar buni yaqqol ko‘rsatadi:

Tojikcha so‘z	O‘zbekcha sinonimi	Ma’no
Orom	Dam olish	Tinchlik, osoyishtalik holati

Tojikcha soʻz	Oʻzbekcha sinonimi	Maʼno
Anduh	Gʻam	Qaygʻu, tashvish
Hunar	Kasb	Mehnat turi, ixtisoslik
Xursand	Hursand, quvonchli	Sevinch, mamnuniyat
Khotir	Xotira	Esda qolgan narsa, yodgorlik

Bu soʻzlar semantik jihatdan bir-biriga yaqin boʻlsa-da, qoʻllanish doirasi, uslubiy rang-barangligi va koʻpincha kontekstga koʻra farqlanadi. Masalan, “orom” soʻzi koʻproq adabiy nutq yoki sheʼriyatda ishlatilsa, “dam olish” esa kundalik soʻzlashuv tiliga xosdir.

2. Sinimlar tizimida uslubiy tafovutlar. Tojik tilidan oʻzlashgan ayrim soʻzlar baʼzan rasmiy yoki adabiy nutqda estetik maqsadda qoʻllanadi, bu esa ularning uslubiy yuklamasini oshiradi. Masalan, “anduh” soʻzi “gʻam”ga nisbatan jiddiyroq, badiiyroq ohangga ega. (Karimov, B. 2010, s. 32-36) Shuningdek, “hunar” soʻzi “kasb” soʻziga nisbatan koʻproq qadimiy, shaxsiy mahoratni ifodalaydi.

3. Tarixiy va ijtimoiy qismlar. Qashqadaryo viloyatida tojik tilining taʼsiri asosan tarixiy-iqtisodiy aloqalar, aralash nikohlar, umumiy yashash muhitining natijasidir. Ayniqsa Kitob, Shahrisabz, Qamashi, Gʻuzor tumanlarida bu taʼsir sezilarli. Bu hududlarda oʻzbek-tojik ikki tilliligi keng tarqalgan boʻlib, bu holat sinonimik qatorlarning shakllanishida hal qiluvchi rol oʻynagan.

4. Shevada uchraydigan sinonimik misollar. Quyidagi misollar Qashqadaryo viloyati aholisi ogʻzaki nutqidan olingan:

- “Bu ishda koʻp hunar kerak.” – “Bu ishda koʻp kasb malakasi kerak.”
- “Anduh ichida qolib ketdi.” – “Gʻam-gʻussada qoldi.”
- “Biror joyda orom olgin.” – “Bir joyda dam olgin.”

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyati shevalarida tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar asosida shakllangan sinonimlar va ularning semantik-uslubiy xususiyatlarini oʻrganish maqsadida bir qator lingvistik tadqiqot usullari va metodik yondashuvlar qoʻllanildi. Quyida tadqiqotda asosiy oʻrin egallagan metodologik asoslar bayon etiladi: Bu usul orqali tojik tilidan kirib kelgan soʻzlar va ularning sinonimlari Qashqadaryo shevalarida qanday qoʻllanilayotgan.

Ushbu usul mintaqaviy shevalarning mavjud lugʻaviy boyligini aniqlashda foydali boʻldi. Maqolada sinonim soʻzlar oʻzaro maʼno jihatidan taqqoslandi, ularning semantik yaqinligi va farqlari tahlil qilindi. Masalan, “yurak – dil”, “xotin – haram” kabi juftliklarning maʼno tafovutlari aniqlashtirildi.

Tojikcha oʻzlashmalarning sinonim sifatida qanday kontekstda ishlatilayotgani yozma va ogʻzaki matnlar asosida oʻrganildi. Bunda Qashqadaryo viloyatiga oid

folklor namunalaridan, ogʻzaki hikoyalar va suhbatlardan foydalanildi. Tojik tilidan oʻzlashgan leksik birliklarning kelib chiqishi, ildizi va tarixiy rivojlanishi etimologik jihatdan izohlandi. Bu usul orqali oʻzlashmalarning tojik tiliga mansubligi va ularning sinonimik qatorlarga qanday qoʻshilgani aniqlashtirildi.

Zamonaviy lingvistik korpuslar (jumladan, oʻzbek tilidagi dialektologik lugʻatlar va sheva namunalarini oʻz ichiga olgan toʻplamlar) yordamida Qashqadaryo shevalaridagi sinonimlar namunalari yigʻildi va tahlil qilindi. Oʻzbek adabiy tili va Qashqadaryo shevalaridagi sinonimlar taqqoslandi. Shuningdek, boshqa viloyatlar shevalari bilan qiyosiy tahlil ham olib borildi. Tadqiqotning amaliy qismida Qashqadaryo viloyatining turli tumanlarida yashovchi mahalliy aholining soʻzlashuv nutqi kuzatildi, ular bilan suhbatlar tashkil etildi.

Muhokama

Qashqadaryo viloyati — Oʻzbekistonning janubiy hududida joylashgan, qadimdan turli etnoslar va madaniyatlar tutashgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu viloyatda yashovchi aholi oʻzbek tilining janubiy lahjalarida soʻzlashadi. Aynan shu hududda tarixiy, madaniy va geografik yaqinlik sababli tojik tili bilan tillararo aloqalar juda qadimiy va mustahkam boʻlgan.

Natija

Qashqadaryo oʻzbek shevalarida tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar keng qoʻllaniladi va ularning koʻpchiligi sinonimik qatorlarni hosil qiladi. Ushbu sinonimlar nafaqat lugʻaviy boylikni oshiradi, balki mintaqaning lingvistik xususiyatlarini ham namoyon etadi.

Ushbu tojikcha oʻzlashmalarni sinonim hosil qilishi Qashqadaryo shevalarida tojik tilidan kirib kelgan koʻplab soʻzlar mavjud boʻlib, ular koʻpincha oʻzbek tilidagi soʻzlar bilan bir qatorda sinonim sifatida ishlatiladi. Masalan:

Oʻzbekcha soʻz	Tojikcha oʻzlashma	Sinonimik qator misoli
goʻzallik	zebo	goʻzallik – zebo
odam	bashar	odam – bashar
ayol	zan	ayol – zan
oʻgʻil bola	pisar	oʻgʻil – pisar
xotin	haram	xotin – haram
yurak	dil	yurak – dil
doʻst	rafiq	doʻst – rofiq

Bu kabi sinonimlar asosan **leksik sinonimlar** boʻlib, ularning shakli har xil boʻlsa-da, maʼnolari yaqin yoki bir xil boʻladi. Ayrim hollarda esa bu sinonimlar

uslubiy yoki emotsional bo‘yoqlarga ega bo‘lishi mumkin. Tojik tilidan kirib kelgan so‘zlar ko‘pincha shevada **obro‘liroq, rasmanroq yoki poetik** ma’noda ishlatiladi. Masalan, “dil” so‘zi “yurak”ga nisbatan shevada ko‘proq lirika, muhabbat, his-tuyg‘ular bilan bog‘liq kontekstda qo‘llaniladi. Shuningdek, “zan” so‘zi “ayol”ga qaraganda ko‘proq mumtoz adabiyotga xosroqdir. Tojikcha o‘zlashmalar sinonim sifatida qo‘llanishi orqali Qashqadaryo shevalarining ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, quyidagi jummalarni ko‘rib chiqamiz:

A.U juda chiroyli ayol edi.

B.U juda zebo zan edi.

Ikkala jumla bir-biriga yaqin ma’noni bildirsa-da, ikkinchi jumla poetik ohangda va biroz estetikroq tuyuladi. Bu esa tildan maqsadga qarab foydalanish imkonini beradi. Tojikcha so‘zlarning Qashqadaryo shevalarida ko‘p uchrashining asosiy sabablari quyidagilardir:

1. Geografik yaqinlik: Qashqadaryo viloyatining tojik tilida so‘zlashuvchi hududlarga yaqin joylashganligi;

2. Tarixiy tutashlik: Amudaryo bo‘yidagi qadimiy shaharlar (Kitob, Shahrisabz, Qarshi)da fors-tojik adabiyoti kuchli bo‘lgan;

3. Madaniy almashinuv: Savdo, oila, madaniyat orqali tojik tilidan kirgan so‘zlar xalq orasida sinonim shaklida ildiz otgan.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosida vujudga kelgan sinonimlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida e’tiborga molik hodisa hisoblanadi. Maqolani yozish natijasida, ushbu viloyatning ayrim tumanlarida tojik tilining tarixiy va ijtimoiy ta’siri kuchli bo‘lgan, natijada xalq og‘zaki nutqida tojikcha so‘zlar o‘zbekcha muqobillari bilan yonma-yon ishlatilib, o‘ziga xos sinonimik qatlamni vujudga keltirgan. Bu sinonimlar faqat ma’nodosh so‘zlar sifatida emas, balki o‘zlarining uslubiy va emotsional ranglari, kontekstga xos qo‘llanish hollari bilan ham farqlanadi. Ayniqsa, adabiy va og‘zaki nutqda bu so‘zlar orasidagi tafovut yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “anduh” va “g’am”, “hunar” va “kasb” kabi so‘zlar semantik yaqinlikka ega bo‘lsalar-da, ularning qo‘llanilishida ma’lum uslubiy nozikliklar mavjud.

Ushbu maqolada natijalari shuni ko‘rsatadiki, sinonimlarning shakllanishida faqatgina til o‘zlashuvi emas, balki mintaqaviy til madaniyati, sotsiolingvistik muhit va tarixiy aloqa kabi omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayon Qashqadaryo viloyati til muhiti misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mazkur tahlil o‘zbek tili leksikologiyasi, dialektologiyasi va o‘zaro til ta’siri sohalarida olib borilayotgan maqola uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Abduazizov, A. (2007). *O'zbek tilining leksikologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
- Ergashev, E. (2002). *Sheva va dialektlar fonetikasi*. Toshkent: Fan.
- Jo'raev, M. (1996). *Qashqadaryo shevalari leksikasi*. Qarshi: Nasaf.
- Karimov, B. (2010). "*Janubiy hududlarda ikki tillilik va uning leksik qatlamga ta'siri.*" // Til va adabiyot ta'limi.
- Rahmonov, A. (2004). *O'zbek tilidagi sinonimlar: leksik-semantik tahlil*. Toshkent: O'qituvchi.
- Sultonova, M. (2011). "*Tojik tilining o'zbek tiliga leksik ta'siri.*" // Filologiya masalalari ilmiy jurnali, №4.
- Xayrullayev, M. (1999). *O'zbek tilshunosligiga kirish*. Toshkent: O'zbekiston.
- Zohidov, N. (2005). *O'zbek adabiy tili tarixi*. Toshkent: Fan.